BUXORO DAVLAT MUZEY QO‘RIQXONASI TARKIBIDAGI UY MUZEYLAR FAOLIYATI

Saloyeva Ozoda
Kamoliddin Behzod nomidagi Milliy rassomlik va dizayn instituti
San'atshunoslik va muzeyshunoslik fakulteti 3-kurs muzey menejmenti va madaniy turizm yo'nalishi talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada qadim madaniyat va tarix beshigi bo‘lmish Buxoro viloyatida joylashgan memorial uy muzeylari haqida so‘z boradi. Ushbu muzeylarning barchasi muzey qo‘riqxona tarkibiga kiritilgan va davlat muhofazasiga olingan bo‘lib, maqolada muzeylar haqida badiiy, ilmiy so‘z boradi. Bundan tashqari ushbu maqola Buxoro tarixiga , u yerda yetishib chiqqan buyuk zotlar sharafiga yaratilgan muzeylar haqidagi qimmatli ma’lumotlarga yo‘naltirilganligi bilan alohida ahamiyat kasb etadi.

Kalit so‘zlar: muzeylar, uy muzey, milliy madaniy meros, madaniy markaz, milliy qadriyat, ma'naviy madaniyat yodgorliklari, muzey fondi, ekspozitsiya.

Аннотация: В данной статье рассказывается о мемориальных домах-музеях, расположенных в Бухарской области, колыбели древней культуры и истории. Все эти музеи входят в состав музейного заповедника и находятся под охраной государства. Кроме того, эта статья особенно важна, так как посвящена истории Бухары и ценным сведениям о музеях, созданных в честь великих людей, выросших там.

Ключевые слова: музеи, дом-музей, национальное культурное наследие, культурный центр, национальная ценность, памятники духовной культуры, музейный фонд, экспозиция.

Annotation: This article talks about memorial house museums located in Bukhara region, the cradle of ancient culture and history. All of these museums are part of the museum reserve and are under state protection. In addition, this article is particularly important as it focuses on the history of Bukhara and valuable information about the museums created in honor of the great people who grew up there.

Key words: museums, house museum, national cultural heritage, cultural center, national value, monuments of spiritual culture, museum fund, exposition.

Muzey — tabiat tarixi , moddiy va ma’naviy madaniyat obyektlarini yig‘uvchi, o‘rganuvchi, saqlovchi va ko‘rgazmaga qo‘yuvchi , shuningdek, ta’lim va targ‘ibot tadbirlarini o‘tkazuvchi muassasa.Dastlab, bu tushuncha san'at va fanga oid obyektlar (eksponatlar) to'plamini anglatardi , keyin 18-asrdan boshlab u eksponatlar

joylashgan binoni ham o'z ichiga oladi. 19-asrdan boshlab muzeylarda olib borilayotgan tadqiqot ishlari ham qo‘shildi. XX asrning oltmishinchi yillaridan boshlab muzeylarning pedagogik faoliyati boshlandi.Kompyuter texnologiyalari va internet rivojlanishi bilan virtual muzeylar ham paydo bo'ldi. Muzeylar turlari bo‘yicha tasviriy san’at, amaliy san’at, tarix, tabiatshunoslik, adabiyot, qishloq xo‘jaligi, texnikaga mansub va boshqa muzeylarga bo‘linadi.

Tarix muzeylari tarix haqidagi bilimlarni, uning hozirgi va kelajakka aloqadorligini qamrab oladi. Ba'zilar ma'lum bir tarixiy davrni, boshqalari esa butun tarixni qamrab oladi. Bunday muzeylarda ko'plab artefaktlar, jumladan hujjatlar, san'at asarlari, arxeologik ashyolar taqdim etiladi. Ko'pincha bunday muzeyning obyekti uy-muzeyga aylanadi.

Bunday tarixiy turdagi uy muzeylarga Buxoro davlat muzey qo‘riqxonasi tarkibidagi uy muzeylar yaqqol misol bo‘la oladi.Ushbu muzey qo‘riqxona Buxoro viloyatida tashkil topgan 18 ta muzeyni va bir qancha tarixiy yodgorliklarni o‘zida jamlagan muassasasidir. Muzey qo‘riqxonaning asosiy vazifasi eksponatlarni yaxshi saqlash, ularni o‘rganish, konservatsiya va restavratsiya jarayonlarini sifatli amalga oshirib, uzoq muddat o‘z holicha saqlanishini ta’minlashdan iborat. Dastlab unga 1922- yilda asos solingan. Yillar davomida ko‘plab nomlar bilan atalgan. 2018-yildan boshlab Buxoro davlat muzey qo‘riqxonasi nomi bilan yuritila boshlandi.

So‘zni muzey qo‘riqxona tarkibidagi uy muzeylarga qaratadigan bo‘lsak, uning tarkibida 4 ta memorial muzey mavjud bo‘lib , bular: Mutal Burhonov uy muzeyi , Abu Ali ibn Sino muzeyi , Fayzulla Xo‘jayev uy muzeyi , Imom al-Buxoriy muzeyi.

Mutal Burhonov 1916-yilning 5- may sanasida Buxoro shahrida dunyoga kelgan. Oilada eng kichik farzand bo‘lib undan oldin Minjohiddin va Misbohiddin ismli ikki akasi va Mohida , Fotima ismli ikki opasi bo‘lgan. Mutal Burhonovning otasi matematika fanidan madrasada talabalarga saboq bergan. Amakilari Mazhariddin va Mukammil Burhonovlar esa jadidchilar bo‘lgan.

U bastakor, O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan san’at arbobi (1964), O‘zbekiston xalq artisti (1974).Hammamizga ma'lumki Mutal Burhonov O‘zbekiston Respublikasi Davlat madhiyasining bastakori. Shuningdek, qator kamer-vokal va kamer-cholg‘u asarlarini yozgan, bir necha opera va film, jumladan, „Maftuningman“ filmi musiqasini bastalagan. O‘zbeklar orasida eng sevimli qo‘shiqlarga aylangan „Do‘ppi tikdim“ va „Maftuningman“ qo‘shiqlari musiqasini bastalagan.Burhonov O‘zbekistonda ko‘p ovozli xor hamda a kapella janri asoschilaridan biri hisoblanadi. Burhonov bir necha orden va medal, jumladan, „Shuhrat“ medali (1994), „Buyuk xizmatlari uchun“ ordeni (1998) hamda „El-yurt hurmati“ ordeni (2001) bilan taqdirlangan. Bastakor oila qurmagan va kamtarona hayot kechirgan.

Buxoro shahrining Bahouddin Naqshband ko‘chasida Mutal Burhonovning uy-muzeyi tashkil topdi. Uy-muzey Buxoro davlat muzey-qo‘riqxonasining filiali maqomida tashkil etildi.

Bastakor, ijodkor Mutal Burhonov umrining so‘nggi yillarida, ya'ni 1997-2002-yillarda ushbu mahalladagi uyda yashadi. Bu yerda ijodkor hayoti va ijodiga daxldor bo‘lgan ko‘plab fotosuratlar, kiyimlari, shaxsiy buyumlari, foydalangan kitoblari, cholg‘u asboblari, uy-ro‘zg‘or buyumlari to‘plangan. Uy muzey 4 bo‘limdan iborat bo‘lib,bular quyidagilar: Mutal Burhonov umr yo‘li, Ijodkorning ijod xonasi, Ehtirom va e'tirof xonasi hamda musiqa tarixi xonasi.Muzeyda butun Markaziy Osiyo yerlarida musiqa san’ati rivoji jarayonlari, ularga oid nodir hujjatlar namunasi, 18-asrda Buxoroda shakllangan shashmaqomning dastlabki notaga solish jarayonlari, Davlat madhiyasi musiqasining yaratilish jarayonlari aks etgan tasvirlarni boricha ko‘rish mumkin.

Uy muzeyi 2018-yil Madaniyat Vazirligining 3-sonli qaroriga asosan tashkil etildi.Muzey ochilish marosimi 2018- yil 28- avgustda bo‘lib o‘tdi.Ushbu uy Mutal Burhonovga 1997- yil Buxoro viloyati hokimligi tomonidan sovg‘a qilingan.Muzeyga kiraverishda bastakor haqida qisqacha ma’lumot berilgan plakat bo‘lib, bu orqali tashrifchilar bastakor hayoti haqida bilib oladilar. Muzey 4 ta xonadan tashkil topgani sababli bo‘limlar ham 4 ta hisoblanadi. Dastlabki xona ijodkor umr yo‘liga bag‘ishlangan.Buning sababi bu xonada bastakor hayoti haqida so‘z boradi. Xonada bastakor hayotidan olingan fotosuratlar keltirilgan.Mutal Burhonovning oila a’zolari, onalari, opa va akalari,amakilari, bobo buvilari bilan tushgan tasvirlari o‘rin olgan. O‘z o‘rnida aytib o‘tish joizki, Mutal Burhonovning tarbiyalari bilan amakilari shug‘ullangan va ularga birinchi musiqa chalishni ham aynan amakilari o‘rgatgan ekan. Bundan tashqari ushbu zalda qatag‘on qurbonlari fotosuratlarini ham ko‘rishimiz mumkin. Chunki ularning ayrimlari Mutal Burhonovning oila a’zolari bo‘lishgan.Zalda bastakorning kiyimlari, stol-stullari, dam olish divanlari, uy telefoni, televizor, magnitafon, xona burchagidagi shkafda bastalangan asarlar to‘plami mavjud.





Ikkinchi zal ijod xonasi bo‘lib, asosan musiqa asboblari saqlanadi. Xona burchagida bastakorning drijorlik kastyumi - frak saqlanadi. Bundan tashqari ish stoli, chiroqlar, ko‘zoynak, pianino, fisgarmoniya, afg‘on rubobi, tanbur, musiqa san’atiga oid turli kitoblar va boshqa cholg‘u asboblari saqlanadi. Alohida e'tiborga sazovor bo‘lgan fisgarmoniya eksponati Mutal Burhonov Samarqandda tahsil olib yurgan paytlarda istozlari Nikolay Mironov tomonidan sovg‘a qilingan va bu musiqa asbobida juda ham ko‘p musiqa asarlarini bastalaganlar.Bu musiqa asbobi juda ham noyob hisoblanadi. O‘zbekistondagi eng noyob eksponatlardan biridir.

Keyingi uchinchi zal "E'tirof va ehtirom" xonasi bo‘lib, kompozitorga sovg‘a qilingan buyumlar,ya'ni medallar, ordenlar, faxriy yorliqlar jamlangan. Alohida e'tirof etish zarur bo‘lgan eksponat Birinchi Prezidentimiz Islom Karimov tomonidan Mutal Burhonovning 80 yoshliklari munosabati bilan 1996- yilda topshirilgan faxriy yorliqdir. Ushbu xonadan O‘zbekiston davlat madhiyasiga tegishli bo‘lgan notalar hamda Abdulla Oripov va Mutal Burhonovning birga tushgan fotosuratlari ham o‘rin olgan.Sovet va mustaqillik davrida sazovor bo‘lgan medallar va turli kechalar taklifnomalari ham aynan shu xonada jamlangan.

So‘nggi zal musiqa xonasi bo‘lib, unda Mutal Burhonov kuylari ishtirok etgan konsertlar afishalari devorlardan joy olgan. Undan tashqari Samarqanddagi ta’lim jarayonidan olingan fotosuratlar, Moskva ta’limi tasvirlari, ijodkorning do‘stlar ijodiy davrasidagi fotolari, Tamaraxonim fotosurati, vitrinalarda musiqaga oid kitoblar, plastinkalar mavjud. Ma'lumot o‘rnida aytish joizki, Mutal Burhonov asosan, Botir Zokirov ashulalariga kuy bastalagan va ular ham to‘rtinchi bo‘limda saqlanib kelinmoqda.

Buyuklar yurti bo‘lmish Buxoroda tavallud topib, shu yerda kamol topgan va dong‘i butun olamni tutgan benazir alloma, buyuk bobokalonimiz, ulug‘ mutafakkir, matematik, faylasuf, olim, tib ilmining sultoni, ruhshunos, musiqachi va shoir sifatida ilm fanning 30 ga yaqin turi rivojiga o‘zining munosib hissasini qo‘shgan, avlodlariga bitmas-tuganmas ma’naviy boylikni meros qoldirgan Abu Ali ibn Sinoning tavalladiga ham qarangki, 1000 yildan ko‘p vaqt o‘tdi. Hammamizga ma'lumki, ibn Sino o‘tmish tariximizda o‘zining eng yorqin izlarini qoldirgan bo‘lib, qay sohaga yuzlanmaylik uning boy ilmiy merosiga duch kelamiz.Bularning bari esa xalqimizga g‘urur va iftixor tuyg‘ularini baxsh etadi. Alloma Sharq va G‘arb ilm-fani, ma’rifati, madaniyat taraqqiyotiga katta ta’sir ko‘rsatgani bois, o‘z davrida “Shayx ur-rais”, “Olimlar boshlig‘i”, “Tabiblar podshohi” kabi yuksak maqomlarga sazovor bo‘lgan. “Tib qonunlari” asari esa asrlar davomida tabobatning mufassal qomusi bo‘lib qolmoqda. Uning nomini abadiylashtirish maqsadida haykallar bunyod etilib, o‘zi tug‘ilib o‘sgan yurt Buxoro viloyatida memorial muzey tashkil etilgan.

Ibn Sino (Avitsenna) memorial muzeyi Buxorodan 40 km uzoqlikda Afshona qishlog‘ida makon topgan. Muzey ekspozitsiyasi jahon tibbiyot fanlari asoschisi,

Yevropada Avitsenna nomi bilan tanilgan atoqli Sharq olimi Abu Ali ibn Sino (980-1037) hayoti va faoliyatiga bag‘ishlangan

Ushbu muzey yodgorlik majmuasida Sharq tibbiyot olimi haykali bo‘lib, uning mualliflari haykaltarosh X.Xusnitdinxo‘jayev va me’mor R.To‘xtaganovlar sanaladi. Aynan bu muzey 1980-yil atoqli tibbiyot olimi 1000-yillik tavalludi munosabati bilan barpo etilgan





Muzeyga tashrif buyuruvchilar «Tib qonunlari», «Kitobul-Shifo», «Bilimlar kitobi» nodir qo‘lyozmalari, shuningdek, Abu Ali ibn Sino davriga xos tibbiyot anjomlari nusxalari, 10-asrga tegishli kulolchilik buyumlari bilan yaqindan tanishishlari mumkin.

Muzeyning yangilangan ekspozitsiyasida X-XI asrlarda Somoniylar va Qoraxoniylar hukmronligi davri tangalari, Arab (Kufi) yozuvi bilan keramika idish, «Saxiylik-solihlarning mullki» (X-XI asrlar) qo‘lyozma nusxasi, X-XI asrlarda kimyoviy moddalar saqlash uchun loy idishlar kabi ajoyib eksponatlar bilan boyitilgan. Ibn Sino memorial muzeyi Fransiyaning «Avitsenna-Fransiya» uyushmasi bilan do‘stona aloqalar o‘rnatgan.

Ushbu uyushma muzey ekspozitsiyasi uchun Gerard Sremonning lotin tilidagi «Tib qonunlarii» tarjimasining bir nechta nusxasini, shuningdek, tibbiyot asoschisining qo‘lyozmalari nusxalarini taqdim etgan. Bu hujjat esa Buxoro viloyati Peshko‘ tuman davlat arxivida munosib o‘rnini topgan.

Buxoro viloyati hokimligi qarori bilan 2006-yilda Madaniyat Vazirligi ko‘magi ostida Buxoro Davlat muzey qo‘riqxonasi sa'y harakatlari bilan ibn Sino muzeyi binosida rekonstruksiya ishlari keng ko‘lamda amalga oshirildi va hozirgi kundagi ko‘rinishiga keltirildi. Kapital ta’mirlash ishlaridan so‘ng muzeyning ko‘rkam zallari, konferensiya zali, dam olish zali, ekspozitsiya zallari va videotelefondan iborat yangi ekspozitsiyasi tashkil etildi.

Fayzulla Xo‘jayev uy muzeyi Buxoro shahridagi 19- asr sharq me’morchiligining yorqin namunasi bo‘lib, nafaqat o‘zining boy, millioner savdogar egasi bilan, balki binoning ajoyib ko‘rinishi bilan ham diqqatga sazovordir. Bugungi

kunda, bu XIX-XX asrlar oxirining tarixi va madaniyatini his qilish, o‘sha zamondagi savdo-sotiq hayoti, mebel, interyer va san’atning noyob namunalarini ko‘rish imkoniyatiga ega bo‘lish mumkin bo‘lgan maskandir.Fayzulla Xo‘jaevning uy-muzeyi, Buxoroning markazida joylashgan. Dastlab, uning egasi, taniqli savdogar Ubaydullo Xo‘ja Qosim Xo‘jaev bo‘lgan, keyin esa uy uning merosxo‘r o‘g‘li Fayzulla Xo‘jaevga o‘tgan. Uy, XIX asrning 80-yillari oxirida sotib olingan bo‘lib uch gektar maydondan iborat bo‘lgan. Savdogar, bu katta maydonda o‘zining katta oilasini hisobga olib bir nechta uy qurdirgan.

Uy dastlab ikki qismdan iborat bo‘lgan, ya'ni ayollar va erkaklar xonalaridan. Bundan tashqari, uyda mehmonxonalar, balkonlar, xo‘jalik ehtiyojlari uchun xonalar ham mavjud bo‘lgan. Har bir xonaning naqshlari, bezaklari, ichki interyerlariga alohida e'tibor qaratilgan. Yog‘och o‘ymakorligidan alohida foydalanilgan. Har bir xonada o‘ziga xos ko‘rinishdagi mebellar, noyob bezaklar, antiqa buyumlar bo‘lgan. Asosiy xonalarda o‘sha davr qimmatbaho idishlari, uy-ro‘zg‘or buyumlari, ko‘rkam va naqshinkor vazalar, kiyim-kechaklar va albatta ayollar zeb-ziynat buyumlarini hozir ham ko‘rish mumkin.

Fayzulla Xo‘jaev (1896-1938), otasidan tadbirkorlik qobiliyatini meros qilib olmadi, u davlat arbobi bo‘lib yetishib jadidchilik g‘oyalarini ilgari surgan va keyinchalik Buxoro Xalq Sovet Respublikasini boshqargan. 1937-yilda u janjalli ish bo‘yicha Toshkentda hibsga olinib, 1938-yilda o‘limga hukm qilingan va Moskvada otib tashlangan. 1965-yilda, u to‘liq reabilitatsiya qilingan.



Hozirda muzeyda Buxoro amirligi ravnaq topgan davrning aks-sadolari, Xo‘jayevlar sulolasining hayoti to‘g‘risida hikoya qiluvchi o‘nlab ko‘rgazmalarga guvoh bo‘lishimiz mumkin. Uy muzeyning nodir eksponatlari orasida chinni buyumlar, musiqa cholg‘u asboblari, buxorolik zodagonlarning qimmatbaho kiyimlari mavjud.Fayzulla Xo‘jayev memorial muzeyiga tashrif buyurganingizdan

so‘ng, turli etnografik ko‘rgazmalar, betakror va ajoyib bezaklar hamda qadim shahar Buxoroning muhatasham hayot namunalarini ko‘rib hayratingiz oshadi.

Muzeydagi eksponatlar jamiyat taraqqiyoti va uning madaniyatidagi jarayonlarning dalili bo‘lib xizmat qiladi. Shuning uchun ular ular hujjatlashtirish vazifalarini bajaradi. Shuningdek muzey ashyolari davrlar orasidagi aloqani tiklaydi va o‘tmish bilan hozirgi kunni birlashtirib turadi.Shu bilan birga muzeylar odamlarga bugungi kun va o‘tmish orasidagi o‘xshashlik va farqlarni anglatadi.

Muzey ashyolari asosida tarixiy va tarixiy-madaniy jarayonlarni modellashtirish, shuningdek, o‘tmish voqeligini to‘liq taqdim eta olish yangi bilimlarni beradi. Madaniy merosning obyektivligi va ko'rinishi ta'lim sohasida yordam beradi: tizimlashtirilgan bilimlar yaxshiroq o'zlashtiriladi.

Bundan tashqari, muzey kolleksiyalari inson dunyoqarashining shakllanishiga ta’sir qiladi, chunki ular ijtimoiy-madaniy muhitda insoniyatning umumiyligi va uning xilma-xilligiga munosabatni shakllantiradi, tarix va madaniyatga oid umumlashtirilgan qarashlar tizimini ta’minlaydi. Kommunikativ funktsiya turli davrlar va madaniyatlarni hisobga olgan holda odamlarning tushunishi va muloqoti, avlodlar, turli madaniyatlar yoki konfessiyalar jamiyatlari va boshqalar o'rtasida o'zaro tushunishni o'rnatish yoki tiklash orqali amalga oshiriladi.

Muzey ashyolari iqtisodiy funktsiyani ham bajaradi. Ular qadriyatlarni oshiradi, odamlar manfaati uchun xizmat qiladi.

Tarixiy ijtimoiy-madaniy merosdan xalqlar tarixidagi obyektiv siyosiy jarayon va hodisalarni isbotlash, turli ijtimoiy jamoalar o'rtasidagi munosabatlarda qo'llanilishi, davlat faoliyatini shakllantirish, uning shakllari, yo'nalishlari, vazifalari va mazmunini aniqlash uchun foydalanish mumkin.

Muzey ashyolarining tarbiyaviy vazifasi o‘tmishni e’zozlash, vatanparvarlik tuyg‘ularini rivojlantirish, ma’naviy yuksalish yo‘nalishi, bolalar va yoshlarning tarixiy xotirasini mustahkamlash orqali amalga oshiriladi. Muzey kollektsiyalari badiiy faoliyatning estetik didi va qadriyatlarini shakllantiradi.

Nihoyat, ular ham ijodiy funktsiyaga ega. Ular muzeylarning tarixiy va madaniy boyliklarini jamiyat rivojlanishidagi ishtirokini, shu jumladan amaliy ilmiy tadqiqotlar va ushbu resurslar hajmini oshirish orqali kuchaytiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Qahramon Rajabov. O‘zME. Birinchi jild. Toshkent, 2000-yil

2. Tomilov N.A. Muzeylarning ijtimoiy roli: hozirgi holat (Omsk viloyati materiallari asosida) Arxiv nusxasi2016 yil 28 apreldagiWayback mashinasida// Sibirdagi madaniy tadqiqotlar. - 2014 yil - 2-son. - 111-119-betlar

3. Gerasimov G.I. Muzey ideal hodisa sifatida // Muzeyshunoslik masalalari. - 2020. - No 11 (1). — P. 123. https://doi.org/10.21638/11701/spbu27.2020.112

4. "Mutal Muzayyinovich Burhonov". O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi. Toshkent: O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi Davlat ilmiy nashriyoti. 2006.

5. Baqoyev M., Fayzulla Xo‘jayev jurnalist va publitsist, T., 1992.

6. https://uz.wikipedia.uz